




# XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## XORAZM VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI 2024- YIL YANVAR (DASTLABKI MA'LUMOT)



Tel.: 62-224-64-99  
[www.xorazmstat.uz](http://www.xorazmstat.uz)

## Xorazm viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari

**Sanoat** bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2024- yilning yanvar oyida viloyat korxonalari tomonidan 1 194,7 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023-yilning yanvar oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 100,7 % ni tashkil etdi.


**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.



### Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari


(2024- yil 1- fevral holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 3 962 ta sanoat korxonasi faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan 3 924 tasi kichik biznes subyektlaridir. Yangi tashkil qilingan korxonalar soni 66 ta va barchasi kichik biznes hissasiga to'g'ri kelmoqda.




## Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2024- yil yanvar oylarida viloyatimizda jami sanoat ishlab chiqarishi 1 194,7 mlrd. soʻmni, shundan 0,2 mlrd. soʻm togʻ-kon sanoatiga, 1 128,8 mlrd. soʻm ishlab chiqarish sanoatiga, 52,7 mlrd. soʻm elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash sanoatiga, 13,0 mlrd. soʻm suv bilan taʼminlash kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yigʻish va utilizatsiya qilish sanoatiga toʻgʻri keldi.



Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga toʻgʻri kelib, 1 128,8 mlrd. soʻmni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 94,5 % ni tashkil etdi.




Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati – 54,9 %ga o'sishi, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoati – 2,9 %ga o'sishi, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 47,3 %ga kamayishi, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimining 1,5 %ga o'sishi kuzatildi.



### Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

**Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash** – tabiatda qattiq jinslar shaklida uchraydigan (ko'mir, ruda), suyuq holatda uchraydigan (neft) yoki gazsimon holatda uchraydigan (tabiiy gaz) foydali qazilmalarni qazib olishni o'z ichiga oladi.



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati korxonalari tomonidan 2024- yilning yanvar oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,2 mlrd. so'm yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 0,02 % ga to'g'ri keldi.




## Xorazm viloyatining ishlab chiqaradigan sanoati

**Ishlab chiqaradigan sanoat** bu – tarmoq yangi mahsulot chiqarish maqsadida modda yoki komponentlarni, materiallarni, garchi ishlab chiqarishning ma’lum turi uchun birdan-bir to’liq me’zon hisoblanmasa ham, fizik yoki kimyoviy qayta ishlashni o’z ichiga oladi.

2024- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1 128,8 mlrd. so’mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 94,5 % ini tashkil etdi.




2024- yil yanvar oyini o'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,06 % ni (2023- yilning yanvar oyida – 0,03 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 37,8 % (2023- yilning yanvar oyida – 34,0 %), o'rta-quyi texnologiyali – 4,2 % (2023- yilning yanvar oyida – 3,1 %), quyi texnologiyali 52,4 % (2023- yilning yanvar oyida – 56,1 %) ni tashkil etgan.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 41,7 % (2023- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 108,6 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 0,1 % (2023- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 67,7 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 35,2 % (2023-yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 123,3 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 16,0 % (2023- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 75,2 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 0,6 % (2023- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 88,5 %)ni, yog'och va po'kak buyumlar (mebeldan tashqari), poxol va to'qish uchun materiallardan buyumlar, qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi – 3,4 % (2023- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 140,6 %)ni tashkil etdi.


\* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

### Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati (O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da\*)



\* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati (O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da\*)



## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

2024- yilning yanvar oyi davomida ishlab chiqaradigan sanoatda paxta tolasi 10 022,9 tonna (2023- yilning yanvar oyiga nisbatan 22,3 % ga oshgan), paxta chigiti 16 200,7 tonna (2023- yilning yanvar oyiga nisbatan 3,8 % ga kamaygan), 24 47,4 tonna paxtadan yigirilgan ip (20,2 % ga oshgan), 343,0 ming kv.metr gilam va gilam mahsulotlari (3,1 marta oshgan), o'simlik yog'i 269,4 tonna (5,1 marta oshgan), paxta linti 791,3 tonna (8,1 % kamaygan), uzum vinosi 29 ming litr (5,8 marta oshgan), 14,8 ming litr aroq (14,7 % kamaygan) hamda 4807,4 tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (26,2 % kamaygan) ishlab chiqarildi.


Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar	2024- yil yanvar	Farqi +/-
O'simlik yog'i, tonna	53,3	269,4	216,1
Shakar, tonna	11 586,8	0	- 11 586,8
Gilam, ming.kv	110,0	343,0	233,0
Yumshoq bug'doy va spelta uni, tonna	6 512,3	4 807,4	- 1 704,9
Paxta tolasi, tonna	8 194,6	10 022,9	1 828,3

\* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

## Yengil avtomobillar ishlab chiqarish (2024- yilning yanvar oyida)


**Yengil avtomobillar** – umumiy yoki maxsus yengil avtomobillarga bo‘linib, 2 kishidan 8 kishigacha mo‘ljallangan transport vositasi.

Viloyatimizda 2024- yilning yanvar oyida yirik korxonalar bo‘yicha jami 3 865 dona yengil avtomobil ishlab chiqarildi. Yengil avtomobillari ishlab chiqarish o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan 17,6 % ga oshgani kuzatildi.



## Maxsus yengil avtomobillar (2024- yilning yanvar oyida)

Viloyatda 2024- yilning yanvar oyida yirik korxonalar bo‘yicha jami 919 dona maxsus yengil avtomobil ishlab chiqarilib, ushbu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 39,4 foizga kamayganligini ko‘rish mumkin.




\* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko‘ra

## Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

**Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish** – yo'lovchilar yoki yuklarni tashish uchun avtotransport vositalari ishlab chiqarishni o'z ichiga olib, turli butlovchi qismlar va aksessuarlar, shuningdek, treyler va yarim tirkamalarni ishlab chiqarishni ham o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 37,1 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 101,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 419,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.



## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

**Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish** – minerallar asosi- da mahsulotlar ishlab chiqarishga tegishli bo'lgan ishlab chiqarish turlarini o'z ichiga olib, shisha va shishadan mahsulotlar, keramik buyumlar, polga o'rnatiladigan qoplamalar, kafel, cherepitsa, terrakota buyumlar, sement va xomashyodan tayyor mahsulotgacha ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,7 % ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 6,1 % ga o'sdi va ishlab chiqarish hajmi 19,7 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

**Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish** – yeyiladigan qishloq xo‘jaligi, o‘rmon va baliqchilik (oziq-ovqat) mahsulotlarini, spirtsiz ichimliklarni, mineral suvlarni va boshqa idishdagi suvlarni o‘z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar oyi yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 9,4 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 52,8 % va ishlab chiqarish hajmi 105,6 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

**Ichimliklar ishlab chiqarish** – spirtsiz ichimliklar va mineral suvlarni ishlab chiqarishni, spirtli ichimliklarni ishlab chiqarishni, asosan fermentatsiya metodi orqali pivo va vino, shuningdek, distillangan alkogol ichimliklar ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2024- yil yanvar oyi yakunlariga ko‘ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 6,6 % bo‘lib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 116,1 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 74,8 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



## To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati


**To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish** – to'qimachilik tolasini tayyorlash va yigirish, shuningdek, to'qimachilik gazlamalarini va tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, to'qimachilik mahsulotlariga va kiyimlarga bezak berish, kiyimlardan tashqari tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.

2024- yilning yanvar oyida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 33,5 % ni tashkil etgan, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 18,9 % ga ko'payib, ishlab chiqarish hajmi 377,9 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



**Kiyim ishlab chiqarish** – barcha materiallardan (masalan, teri, to'qimachilik gazlamalari, to'qilgan va trikotaj gazlamalari va h.k.) barcha tikish mahsulotlarini (tayyor yoki alohida buyurtma bo'yicha qilingan), kiyimlarning barcha turlari (masalan, ustki kiyim, erkaklar, ayollar va bolalar uchun ichki kiyimlar, ish, ofis, kundalik yoki sport kiyimlari va h.k.) va aksessuarlarni ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar oylarida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,6 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 185,9 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 17,5 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



## Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

**Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish** – rezina va plastikdan mahsulot ishlab chiqarishni, ishlab chiqarishda foydalanadigan xomashyo materiallarini o‘z ichiga oladi. Lekin bu bo‘limga ishlab chiqarishning barcha turlari va materiallari kiradi degani emas.


2024- yilning yanvar oyi yakunlariga ko‘ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,5 % ni, fizik hajm indeksi 83,2 % ni tashkil qildi hamda ishlab chiqarish hajmi 5,3 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



## Elektr uskunalari ishlab chiqarish

**Elektr uskunalari ishlab chiqarish** – elektr energiyasini ishlab chiqaruvchi va taqsimlovchi mahsulotlar ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, bu bo‘lim elektr yorituvchi, signal uskunalari va maishiy elektr asboblari ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar oyli yakunlariga ko‘ra, ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi elektr uskunalari ishlab chiqarish sanoatining ulushi 0,1 % ni, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 26,6 % ni tashkil etdi hamda ishlab chiqarish hajmi 1,5 mlrd. so‘m ekani kuzatildi.



## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash** – elektr energiyasini, tabiiy gazni, bug'ni, issiq suvni va shu kabilarni doimiy tarmoqlar – kabellar, quvurlar, suv quvurlari orqali yetkazib berish bilan bog'liq faoliyatni o'z ichiga oladi.

2024- yil yanvar oyida elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 52,7 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,4 % ini) tashkil etgan.



### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2024- yilning yanvar oyida sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 47,3 %ga kamayganligi kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar	2024- yil yanvar	Farqi +/-
Elektrenergiya, mln.kVt.s	116,6	95,2	- 21,4
Issiqlik energiyasi, ming gkal	14,0	20,5	6,5
Elektrenergiya uzatish bo'yicha xizmatlar, ming so'm	108 640,0	105 411,0	- 3 229,0

(o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da\*)

## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish** – qattiq va suyuq, sanoat va maishiy, shuningdek, zaharlangan chiqindilarning barcha turlariga ishlov berish (yig'ish, qayta ishlash va yo'qotish)ni o'z ichiga oladi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan 2024- yil yanvar oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 13,0 mlrd. so'mga (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,1 % iga) to'g'ri keldi.



### Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


O'tgan yilning mos davriga nisbatan tabiiy suv, suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 28,5 %ga oshganligi, oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 74,9 %ga oshganligi, xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar 32,8 %ga ko'payganligi kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar	2024- yil yanvar	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, ming.so'm	505 469,0	883 827,0	378 358,0
Tabiiy suv;suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar, ming so'm	9 095 193,0	11 684 921,0	2 589 728,0
Xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar, ming so'm	1 448 105,0	2 394 735,0	946 630,0

(o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da\*)

## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 218,5 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 18,3 % ni tashkil etdi. 2023- yilning yanvar oyida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 16,9 % ni tashkil etgan.



## Aholi jon boshiga toʻgʻri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish viloyat boʻyicha 2024- yil yanvar oyida 604,3 ming soʻm (2023- yil yanvar oyida 583,1 ming soʻm), oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 98,9 %ni koʻrsatmoqda.

